

---

## "Hormang, hasharchi paxtakorlar!" shiori ostida madaniy tadbir o'tkazildi

Bugun Farg'ona tumanidagi "FERGANA OSEANA" klastriga qarashli "Oqbilol" mahalla hududidagi dala maydonlarida paxta yig'im-terim ishlarida faol qatnashayotgan shahrimiz hasharchilari uchun "Hormang, hasharchi paxtakorlar!" shiori ostida madaniy ko'ngilochar kontsert bo'lib o'tdi.

Madaniy tadbir avvalida Farg'ona shahar hokimining o'rinbosari D.Xolmatova so'zga chiqib, xotin-qizlarga faolliklari uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Paxtani yog'in-sochin kunlarga qoldirmay yig'ib-terishda mehnatlarini ayamay o'z hissalarini qo'shib kelayotgan Farg'ona shahrimizda yashovchi ko'ngilli aholi vakillaridan tashkil topgan hasharchi paxtakorlar uchun tashkillangan kontsert dasturida shahar madaniyat bo'limi mudiri B.Nabiev hamda Markaziy madaniyat markazi xushovoz xonandalari A.Nishonov va S.Karimovalar tomonidan dilrabo kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

Bugungi tadbir orqali ikki yuz nafardan ziyod hasharchi paxtakorlar kayfiyatiga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashildi.

2022-09-27 16:01:43